



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
Laziz Niyozovich Xudoyorov Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
Ибодулла Хасанович Ибрагимов Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
Xilola Nematovna Ochilova “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
Ирода Аминжонова Умурзакова Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
Botir Hayat Muradov Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
ИНВЕСТИЦИЯ	
Ойдин Давроновна Хамракулова Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Shaxnoza Ergashevna Samandarova Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

<p>I.Ibragimov</p> <p>Shaxsiylashtirish – tranzaksion marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish omili sifatida</p> <p>Annotatsiya. Maqolada tranzaksion marketing samaradorligini oshirishda shaxsiylashtirishning o‘rni va raqamli iqtisodiyot sharoitida iste‘molchi xulqiga ta’sir etuvchi yondashuvlar tahlil qilinadi.</p> <p>Kalit so‘zlar: shaxsiylashtirish, tranzaksion marketing, marketing samaradorligi, raqamli iqtisodiyot, iste‘molchi xulq-atvori, qayta nishonlash (retargeting), mijozlarga sodiqlik.</p>	<p>I.Ibragimov</p> <p>Personalization as a Driver for Enhancing the Effectiveness of Transactional Marketing Campaigns</p> <p>Abstract. The article examines the role of personalization in enhancing transactional marketing effectiveness, focusing on integration approaches and their impact on consumer behavior in the digital economy.</p> <p>Keywords: personalization, transactional marketing, marketing effectiveness, digital economy, consumer behavior, retargeting, customer loyalty.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov – NamDTU, “Menejment” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI ERKIN TALAB SHAROITIDA BOSHQARISH – KORXONALAR OPERATSION FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH GAROVI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda tovar-moddiy zahiralarni talab asosida boshqarishda ular bilan bog‘liq harakatlarni muvofiqlashtirishning dolzarbligi yoritib o‘tilgan. Shuningdek, soha olimlarining tovar-moddiy zahiralari va ularni boshqarishga oid yondashuvlari bayon etilgan. Korxonalar mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Soha doirasida yuzaga keluvchi ayrim muammolar sanab o‘tilgan va tovar-moddiy zaxiralarni erkin talab sharoitida boshqarish samaradorligini oshirish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: moddiy resurslar, ishlab chiqarish zahiralari, omborlar, mahsulotlar, iste‘molchilarga yetkazib berish, buyurtmalarni bajarish davrida talab darajasi, tashqi va ichki iste‘molchilar, moda, iqtisodiy vaziyat, raqobat.</p>

Kirish. Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligi bir qator vazifalarni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. Shulardan asosiysi tovar-moddiy zahiralarni to‘g‘ri boshqarish hisoblanadi. Moddiy zaxiralarni to‘g‘ri boshqarish iste‘molchilar ehtiyojlarini tezda qondirishga hissa qo‘shadigan korxonaning raqobat strategiyasini amalga oshirishning muhim vositasidir. Bunday zaxiralarning mavjudligi korxonaning yakuniy mahsulotlariga bo‘lgan talabning kutilmagan o‘zgarishida ham, ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z vaqtida bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taklif qilishda ham korxonalar manfaatlarini himoya qilishga imkon beradi.

So‘nggi tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar yakuniy iste‘molchiga yo‘naltirilgan barqaror ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish, boshqa korxonalar bilan birgalikda resurslarni sotib olish orqali o‘z harakatlarini tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi, bu esa birlik mahsulot uchun ularning qiymatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash xarajatlarini kamaytirish uchun korxonalar ishga tushirish ishlarini amalga oshirish, ta‘minotchilar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bilan bog‘liq harakatlarni doimiy ravishda muvofiqlashtirib borishi kerak. Bunday harakatlar ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuvchanligini oshiradi. Ushbu sharoitda tovar-moddiy zahiralarni erkin talab asosida oqilona boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bozor iqtisodiyoti faoliyati sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olish va uni oshirishdan iborat bo‘lib, bu xo‘jalik yurituvchi subyektning resurs bazasidan samarali foydalanishni ta‘minlash mumkin. Uzluksiz ishlab chiqarishning asosiy komponenti moddiy resurslar bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish korxonaning iqtisodiy o‘sish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Subyektiv yondashuvdan kelib chiqqan holda olimlar va mutaxassislar tomonidan moddiy resurslarni aniqlashning turli xil talqinlari mavjud va ko‘pincha ishlab chiqarish resurslari (ishlab chiqarish zahiralari) (IR (IZ)) moddiy resurslar (moddiy zaxiralari) (MR (MZ)) bilan izohlanadi¹.

¹Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. *Экономикс: принципы, проблемы и политика*: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд.. — М.: Инфра-М, 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-012985-3. Лытнева Н.А., Малявкина Л.И., Федорова Т.В.

Resurslar va moddiy resurslar tushunchalarinig ilmiy – nazariy asoslari, moddiy resurslardan oqilona foydalanish va tejash masalalari bir qator xorijlik va MDH olimlari K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, Sh.M.Flinn, I.V.Sergeyev, N.L.Zaytsev, Yu.A.Babayev, V.V.Volgin, N.A.Lytneva, L.I.Malyavkina, T.V.Fedorova, N.I.Bazylev, M.N.Bazylevalar tomonidan o‘rganilgan.

Mahalliy olimlarimizdan A.V.Vahobov, A.Ortiqov, M.Q.Pardayev, Sh.A.Tojiboyeva, I.T.Abdulkarimov, A.A.Abdiyev, V.V.Ergashboyev, E.A.Akramov¹larning ilmiy asarlarida moddiy resurslar va ularning mazmun-mohiyati, guruhlanishi, ularni baholash, boshqarish va tahlillariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida olimlarning moddiy resurslar, tovar-moddiy zahiralalar bo‘yicha yondashuvlari o‘rganildi. Bu jarayon xususiyatlari, muammolari ko‘rsatib berildi va tegishli xulosalar shakllantirildi. O‘rganilgan ma‘lumotlar asosida kuzatish, tahlil va sintez, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ko‘pincha ishlab chiqarish jarayonini tugatgandan so‘ng korxonalar tayyor mahsulotlarni o‘z omborlarida saqlaydilar. Ushbu zaxiralarning yetarli miqdori mahsulotlarni zarur bo‘lganda iste‘molchilarga tez yetkazib berishining ishonchli manbayi hisoblanadi. Mustaqil talab bilan mahsulot zaxiralarini samarali boshqarish ortiqcha miqdordagi tovarlarni saqlashning oldini olishga yordam beradi. Natijada ularni saqlash xarajatlari minimallashtiriladi va mahsulotlarni maqbul narxlarda iste‘molchilarga yetkazib berish darajasi oshadi.

“Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash xarajatlari” tushunchasi tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, to‘plash, saqlash, ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xarajatlarni hisobga olish uchun turli xil yondashuvlardan foydalaniladi: xarajatlarni qo‘shimcha xarajatlarga ajratishdan tortib, ularni maqsadli xarajatlarga taqsimlash-gacha. Biroq yashirin xarajatlar zaxiralari bo‘lmagan taqdirda ham paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har doim tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirishda zaxiralarni to‘plash qiymatni oshishiga olib kelishi variantlarini va ularning kamayishi sabablarini hisobga olish kerak.

Xizmat ko‘rsatish darajasini aniqlashda uning oldindan belgilangan qiymatdan oshmasligi juda muhimdir. Amalda shunday bo‘ladiki, buyurtmani bajarish davrida mahsulotga bo‘lgan haqiqiy talab kutilgan qiymatdan farq qiladi, bu quyidagilar bilan bog‘liq: buyurtmani yetkazib berish muddatlaridagi tebranishlar, zahiralarni iste‘mol qilish darajasidagi kutilmagan o‘zgarishlar, kutilgan xizmat ko‘rsatish darajasi va boshqalar. Shuning uchun buyurtmalarni bajarish davrida talab darajasi (*RL*)ni aniqlash uchun ko‘pincha quyidagi:


- oldingi ishlab chiqarish tsikllaridagi iste‘mol darajasi, shu jumladan tashqi va ichki iste‘molchilarga yetkazib berish hajmi to‘g‘risidagi;
- moda, iqtisodiy vaziyat, raqobat va boshqa omillarning o‘zgarishi tufayli tendensiyalardagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi (yuqori tendensiya bilan mahsulotlarning mashhurligi oshadi, pasayish tendensiyasi bilan, aksincha, pasayadi);
- mahsulotlarni sotish va iste‘mol qilish ko‘rsatkichlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilish bilan ekspert baholari yordamida birgalikda prognozlash;
- prognoz gorizonti, ya‘ni prognoz berilgan vaqt oralig‘ini hisobga olish to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi.

Buyurtmani bajarish vaqtida talab darajasi to‘g‘risida ma‘lumot bo‘lmasa, hisob-kitoblarda ma‘lum cheklovlar qo‘llaniladi. Ushbu vaziyatni grafik usul yordamida ko‘rib chiqamiz. Quyida talabning diskret (bu bir necha xil barqaror holatlar o‘rtasida o‘zgarib turadigan jarayon) darajasi ko‘rib chiqiladi (aksincha, zaxiralarga bo‘lgan talabning doimiy darajasi to‘g‘ri chiziq bilan aks ettiriladi). Zaxiralarning tugashi xavfi shtrix chiziq bilan belgilangan maydonda

Бухгалтерский учет. - 2-е изд. М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 512 с. Базылев Н.И., Базылева М.Н. Экономическая теория. Минск: Современная школа, 2008. 640 с.

¹Акромов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003.-223 б. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.А.Ортиқов. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). — Т.: ТДИУ, 2009, 320-б. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил– “Шарқ” нашриёт, Т.:2002. – 224 б. И.Т. Абдукаримов, М.Қ. Пардаев, А.А. Абдиев, В.А. Абдукаримов. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й. И.О.Волжин, В.В. Эргашбоев. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998. М.Қ.Пардаев, А.Х.Шоалимов.Бошқарув таҳлили.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2005. А.Х.Шоалимов, Ш.А.Тожибоева. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2011.

aks etadi.



1-rasm. Buyurtmani bajarish davrida talab darajasining o‘zgarishi xususiyatlari.

Agar talab darajasi buyurtmani bajarishning ma’lum bir davrida o‘zgaradi deb faraz qilsak va buyurtmani bajarish davrining o‘zi doimiy bo‘lsa, u holda:

$$\Delta D_{LT} = \sqrt{LT \times \Delta_D^2} \quad (1)$$

bu yerda, LT – buyurtmani bajarish vaqti (kun, hafta va boshqalar);

Δ_D – talabning standart og‘ishi (kun, hafta va boshqalar).

So‘ngra qayta buyurtma berish nuqtasi quyidagicha hisoblanadi:

$$ROP = RL + Z \times \sqrt{LT \times \Delta_D^2} \quad (2)$$

Agar buyurtmani bajarish muddati o‘zgargan taqdirda formulalar quyidagi shaklga ega bo‘ladi:

$$\Delta D_{LT} = d\Delta_{LT}, ROP = RL_t + Z \times d\Delta_{LT}$$

bu yerda, RL_t – buyurtmani bajarish davridagi talab darajasi (bir davr uchun talabni buyurtmani bajarishning o‘rtacha vaqtiga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi);

d – bir davr uchun talab (kunlik, haftalik va h.k.);

Δ_{LT} – buyurtmani bajarish muddatining standart og‘ishi (kunlik, haftalik va h.k.).

Agar talab ham, buyurtmani bajarish vaqti ham bir-biridan mustaqil ravishda o‘zgarsa, u holda:

$$\Delta D_{LT} = \sqrt{LT \times \Delta_D^2 + \bar{d}^2 \times \Delta_{LT}^2}$$

Bunday holda, $ROP = \overline{RL} + Z \sqrt{\overline{LT} \times \Delta_D^2 + \bar{d}^2 \times \Delta_{LT}^2} \quad (3)$

bu yerda, \overline{RL} – buyurtmani bajarish muddati davridagi talab darajasi (bir davrdagi o‘rtacha talabni buyurtmani bajarishning o‘rtacha vaqtiga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi);

\overline{LT} – buyurtmani bajarishning o‘rtacha vaqti;

\bar{d} – bir davr uchun o‘rtacha talab.

Bundan tashqari, taqdim etilgan tizimlardan birini tanlashga, birinchi navbatda, qiymat ko‘rsatkichlari (buyurtmani bajarish va zaxiralarni saqlash xarajatlari)ga ta’sir qiladi, ularni hisoblashning murakkabligi zaxiradagi mahsulot hajmining oshishi bilan ortadi.

Shuni ham e’tiborga olish joizki, ba’zi hollarda tovar-moddiy zaxiralarning to‘planishi munosabati bilan xarajatlarning ko‘payishi kuzatiladi. Buning oqibatida quyidagi muammoli holatlar yuzaga kelishi mumkin:

- tovar-moddiy zaxiralarni yaratishda ma’lum bir kapitalni investitsiya qilish orqali korxonani aniq va yashirin xarajatlarga to’qnash keladi;
- omborlardan foydalanishda (tayyor mahsulotlar, boshlang’ich resurslar yoki oraliq mahsulotlar uchun) ularni saqlash xarajatlari, shuningdek, ombordan zaxiralarni tashishda foydalaniladigan asbob-uskunalar va texnik vositalar uchun xarajatlar mavjud;
- tovar-moddiy zaxiralarning to’planishi bilan birga korxonalar uchun qo’shimcha soliq yuki, shuningdek, sug’urta badallarining ko’payishi yuzaga keladi;
- mahsulotlarni omborlarda saqlashda zahiralarning sifatini ta’minlash, shuningdek, ularning foydali xususiyatlarining saqlanishini nazorat qilish uchun qo’shimcha xarajatlar kelib chiqadi;
- tovar-moddiy zaxiralarning juda yuqori darajasiga ega bo’lgan korxonalar bozor ehtiyojlarining o’zgarishiga javob berish tezligini pasaytiradi. Natijada, korxonaning raqobatbardoshlik holatiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan yashirin va aniq xarajatlar paydo bo’lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlash uchun tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish operatsiyalari xarajatlarini minimal darajada ushlab turish, shu bilan birga ularni amalga oshirish sifatini saqlab qolish kerak. Bunga erishish uchun korxonalar nafaqat yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga, balki paydo bo’ladigan ehtiyojlarga tezda javob berishga qodir bo’lgan ishonchli ta’minotchilar bilan munosabatlarni saqlab turadilar. Bu tovar-moddiy zaxiralarning darajasini kamaytirishga imkon beradi. Asosiy buyurtmachilar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o’rnatish orqali ularning rejalashtirilgan xaridlari to’g’risida ma’lumot olish mumkin, bu esa korxonalarda ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish jarayonlariga ta’sir qiladi va ehtiyot (xavfsizlik) zaxiralari hajmini aniqlaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarni erkin talab sharoitida boshqarish samaradorligini oshirishda quyidagilarni tavsiya etamiz: talabni o’zgarib borish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishdagi o’zgarishlarni doimo e’tiborga olib borish; uskunalar va uning jihozlariga sotib olishdan oldin qo’yiladigan talablarni aniqlash; korxonaning yakuniy mahsulot narxini arzonlashtirishga yordam beradigan va uni iste’molchi nazarida yanada jozibador qiladigan uskunalarni sozlash qiymatini pasaytirish; yuklash-tushirish operatsiyalari uchun yanada qudratli uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarish liniyalari orasidagi o’tish yo’laklarini kengaytirish; yuqoridagi shartlarning bajarilishini ta’minlash uchun qo’shimcha moliyaviy resurslarni aniqlash va ajratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.
2. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ., Абдиев А.А., Абдукаримов В.А.. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й.
3. Ақромов Э.А Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003.-223 б.
4. Базылев Н.И., Базылева М.Н. Экономическая теория. Минск: Современная школа, 2008. 640 с.
5. Волжин И.О., Эргашбоев В.В.. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
6. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил– “Шарқ” нашриёт, Т.:2002. – 224 б.
7. Лытнева Н.А., Малявкина Л.И., Федорова Т.В. Бухгалтерский учет. - 2-е изд. М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 512 с.
8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд.. — М.: Инфра-М, 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-012985-3.
9. Ортиқов А.. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). — Т.: ТДИУ, 2009, 320-б.
10. Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х..Бошқарув таҳлили.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2005.
11. Шоалимов А.Х., Тожибоева Ш.А.. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Ўқув кўлланма. –Т.: ТДИУ, 2011.

<p>Б.Дедажанов</p> <p>Управление запасами в условиях свободного спроса – гарантия повышения эффективности операционной деятельности предприятий</p> <p>Аннотация. В статье рассматривается актуальность координации действий по управлению запасами на предприятиях, ориентированных на спрос. Описываются подходы отраслевых учёных к запасам и их управлению. Приводятся особенности изменения спроса на продукцию и услуги предприятия. Перечисляются некоторые проблемы, возникающие в отрасли, и даются актуальные рекомендации по повышению эффективности управления запасами в условиях свободного спроса.</p> <p>Ключевые слова: материальные ресурсы, производственные запасы, склады, продукция, поставка потребителям, уровень спроса в период выполнения заказов, внешние и внутренние потребители, мода, экономическая ситуация, конкуренция.</p>	<p>B.Dedajanov</p> <p>Inventory management in free demand conditions – a guarantee of improving the efficiency of enterprise operations</p> <p>Abstract. The article discusses the relevance of coordinating inventory management activities at demand-oriented enterprises. It describes the approaches of industry scientists to inventories and their management. It provides features of changes in demand for the enterprise's products and services. It lists some of the problems that arise in the industry and provides relevant recommendations for improving the efficiency of inventory management in free demand conditions.</p> <p>Keywords: material resources, production stocks, warehouses, products, delivery to consumers, demand level during the order fulfillment period, external and internal consumers, fashion, economic situation, competition.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Xilola Nematovna Ochilova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasida dotsenti v.b., PhD

“KOMPENSATSIYA VA IMTIYOZLAR” FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA AHAMIYATI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada kompensatsiya va imtiyozlar fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati bo'yicha nazariy tushunchalar berib o'tildi hamda kompensatsiyaning turlari, fanning o'rganish strukturasi ham keltirib o'tildi. Kompensatsiya va imtiyozlarni qo'llash natijasida samaradorlikka erishish bo'yicha takliflar ham ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so'zlar: kompensatsiya, imtiyoz, kompensatsiya va imtiyozlar fanining predmeti, fanning vaziflari, fanning strukturasi, kompensatsiya turlari, boshqaruv samaradorligi.</p>

Kirish. “Kompensatsiya va imtiyozlar” fani bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy fanlar va ta’limda eng dolzarb fanlardan biri hisoblanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining samarali joriy etilishi birinchi navbatda inson resurslaridan samarali foydalanishga bog’liq. Mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, shuningdek qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda inson resurslaridan ma’lum bir maqsadga yo’naltirish va undashda samarali foydalanishni talab qiladi. Boshqaruvni samarali tashkil etish va qonun va qoidalarga tayangan holda boshqaruv olib borishda kompensatsiya va imtiyozlar fani tushunchalar beradi.

Darhaqiqat, “Kompensatsiya va imtiyozlar” fani insonning hayotga bo’lgan munosabati uning ish bilan ta’minlanganligining barqarorligi, faoliyat olib borayotgan mehnatiga yo’naltirish va undan qoniqish darajasi kabi masalalar bo’yicha talabalarda korxonalar, tashkilot, muassasalarda personalni ma’lum maqsadga undash va qiziqishini oshirish borasidagi nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kompensatsiya va imtiyozlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatiga oid masalalar bilan chet el olimlaridan Mitrabinda Nayak o’zining 2019-yilda nashrdan chiqargan “Compensation & benefit management”¹ nomli o’quv qo’llanmasida keng yoritib bergan. Bundan tashqari mamlakatimiz olimlari tomonidan inson resurslarini boshqarish, to’lovlar berish bo’yicha M.Q.Pardayev,² K.B.Urazov, M.E.Po’latov³,

¹ <https://abit.edu.in/wp-content/uploads/2022/07/3rd-sem-CBM.pdf>.

² M.Q.Pardayev, B.Sh.Usmonov Innovatsion endashuvlar orkali inson resurslarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish ijlari. “Сервис” илмий-амалий журнали, 2024 йил 4/1-сон, - 17-22 бетлар.

³ Urazov K.B., Po’latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi”, 2021. – 560 bet.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.